

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

USTOZ IBRATI

Feruza Burxanova,
*Nizomiy nomidagi TDPU
dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori*

Inson bu dunyoga kelar ekan unga, avvalo, munis va mukarrama onasi o‘z mehr-muhabbati bilan g‘amxo‘rlik qiladi. Olamdagi turfa rang-barangliklar mohiyatini anglatishga urinadi. Go‘dak bolalik davriga o‘tganida olam mohiyatini anglatishda ota-onasi, yaqinlari va ustozlari ko‘maklashadi. Inson o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilay olishida, hayotda o‘z o‘rnini topishida ustozning maqomi beqiyos. Ustoz - ilmu hikmat sohibi, anglatuvchi, yo‘llovchi, yo‘lboshchi, motivatoridir. Ustozlik darajasini olish u qadar qiyinchilik tug‘dirmasa-da, bu maqomning haqiqiy sohibi bo‘lish insondan nafaqat kuchli intellekt va pedagogik mahorat, balki, fidoyilik, javonmardlik, “shogirdparvarlik”, sabr-qanoat, kamtarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar sohibi bo‘lishlikni ham talab etadi. Mana shunday fazilatlar sohibi bo‘lgan ustozimiz filologiya fanlari doktori, professor Qurdosh Qahramonov bugun qutlug‘ 70 yosh ostonasida turibdi. Qurdosh Qahramonovning ibratli hayot yo‘liga nazar tashlasak shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, ustoz umr bo‘yi pedagogik faoliyat bilan ilmiy tadqiqot ishlarini bir maromda olib borgan. 1974-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (*hozirgi TDPU*) ning “*O‘zbek tili va adabiyoti*” fakultetini muvofaqqiyatli tugatib, bir muddat, ya‘ni, 1974-1979-yillar mobaynida Samarqand viloyati, Nurota tumanidagi 50, 62-maktablarda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi, 1979-1989-yillar oraliq‘ida esa O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida, 1989-yildan to bugungi kunga qadar esa Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida dotsent, kafedra mudiri, professor vazifalarida samarali mehnat qilib kelmoqda. 50 yillik mehnat faoliyatining 35 yili o‘zi tahsil olgan universitetda minglab talabalarga saboq berishga bag‘ishlanganini o‘ziyoq ustozning ilm-ma‘rifat, ziyo taratishdek ulug‘ va mashaqqatli kasbga hamda universitetiga bo‘lgan mehr-u, sadoqatidan darak beradi. Shuningdek, ustoz o‘ndan ziyod yosh ilmiy tadqiqotchilarga o‘zbek adabiyotining dolzarb muammolari yuzasidan mavzular berib, ularning filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini olish uchun yozilgan dissertatsion tadqiqotlariga ilmiy rahbar va maslahatchi bo‘lib kelmoqdi.

Ustozning ilm-fan, xususan, adabiyotshunoslikning adabiy tanqid, bolalar adabiyoti, adabiy jarayon yo‘nalishlarida olib borgan tadqiqotlari, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ustozning monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

risola va ilmiy maqolalari nafaqat, respublikamiz balki xorijiy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholanmoqda. “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti”¹ monografiyasi (1991), “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari”² monografiyasi (2009), “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi”³ darsligi (2012), “Adabiy jarayon estetik talqin”⁴, “Bolalikka oshufta ko‘ngil”⁵ (Qambar ota ijodiga chizgilar) risolasi (2014), “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon”⁶ I qism (2018) monografiyasi hammualiflikda, “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon”⁷ II qism (2019) monografiyasi hammualiflikda, “Ijod va e‘tiqod”⁸ (Abdusaid Ko‘chimov ijodiga chizgilar) monografiya hammualiflikda (2022), “Badiiy so‘z qudrati” maqolalar to‘plami (2024) kabi asarlari va yuzdan ortiq respublika va nufuzli xorij jurnallarida chop etilgan ilmiy maqolalari olimning teran falsafiy tafakkuri, o‘tkir badiiy-estetik didi, tanqidiy nigohi, yuksak salohiyatidan dalolat beradi.

Qurdoş Qahramonovning yuqorida nomlari keltirilgan asarlari adabiyotshunos olimlar, tadqiqotchilar va talabalar tomonidan keng miqyosda o‘rganilganini inobatga olgan holda biz ushbu maqolada olimning so‘ngi yillarda tadqiq etgan yana bir monografik tadqiqotining xarakterli tomonlarini sharhlashga urindik. Monografiya iste‘dodli shoir, yozuvchi, essenavis, publitsist va jamoat arbobi Abdusaid Ko‘chimov ijodi tadqiqiga bag‘ishlanib, “Ijod va etiqod” nomi ostida chop etilgan. Monografiyada Abdusaid Ko‘chimovning biografiyasi, poetik olami, ijodining yetakchi xususiyatlari va tamoyillari, essenavislik mahorati chuqur ilmiy tahlillar asosida yoritilgan. Monografiyaning kompozitsion qurilishi muqaddima, “Ko‘ngil mulkiga sayohat”, “Nasrnavislik mahorati”, “Adibning essenavislik mahorati” nomli uch bobdan iborat. Kitobning “Ko‘ngil mulkiga sayohat” nomli birinchi bobida shoirning “Qor”, “Muhabbat bog‘lari”, “Kuzgi osmon”, “Baland tog‘lar” kabi she‘riy to‘plamiga kirgan she‘rlari lirik qahramonning hayoti va ijod yo‘lini yorituvchi ochqichlar, ko‘ngil izhorlari sifatida tadqiq etilib, she‘rlardagi poetik obraz, ramz va metaforalar, ritm va ohang, lirik “men”ning munosabati badiiy quvvat va estetik ta‘sirchanlikni ta‘minlovchi vositalar sifatida talqin etilgan. Shuningdek kitobda,

¹ Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. Monografiya. T.: “Fan”, 1991.

² Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Monografiya. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

³ Nazarov B., Rasulov A., Axmedova Sh., Qahramonov Q. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. Darslik. Toshkent. “Tafakkur qanoti”. 2012.

⁴ Qahramonov Q. Adabiy jarayon estetik talqin. Maqolalar to‘plami. T.: “Turon zamin ziyo”. 2014

⁵ Qahramonov Q. Bolalikka oshufta ko‘ngil. (Qambar ota ijodiga chizgilar) Risola. T.: “Turon zamin ziyo”. 2014

⁶ Nazarov B., Meli S., Sattorova G., Qahramonov Q. Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon. Monografiya. T.: “Fan”, 2018.

⁷ Nazarov B., Meli S., Sattorova G., Qahramonov Q. Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon. Monografiya. T.: “Fan”, 2019.

⁸ Qahramonov Q., Burxanova F. Ijod va e‘tiqod. Monografiya. T.: “Akademnashr”, 2022.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

shoirning bolalar she'riyatiga bag'ishlangan bir turkum she'rlarining hayotiyliigi, samimiy ruh ustuvorlik qilishi, asarlarining ma'rifiy-estetik ahamiyati xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, A.Ko'chimovning Ona Vatan mavzusiga bag'ishlangan “Vatan”, “Istiqlol qo'shig'i”, “Iltijo” kabi she'rlarida lirik qahramonning jo'shqin, ogohlikka da'vat etuvchi sermavj to'yg'ulari ifodalanib, ijtimoiy motivlarni ham ustuvorlik qilingani ko'rsatiladi. Shu jihatdan, shoirning “Demokratiya”, “Yollangan muhbir”, “Armon”, “Abdulhamid Cho'lpon faryodi”, “O'zbekiston qayda bor” kabi she'rlarida millatparvarlik, vatanparvarlik motivlarini yetakchik qilishi, beorom qalb tug'yonlari, shoirning vatanga mehri qancha cheksiz bo'lishiga qaramay, g'animga nafrati ham shuncha kuchli ekani tahlillar asosida yoritib berilgan. Shoir lirikasi tahlili asnosida, she'riyatini birlashtirib, bir nuqtaga jamlab turadigan eng muhim xususiyat, ijodining bosh konsepsiyasi ya'ni insoniylikni madh etish ekani isbotlanadi, shoir shaxsiyatining pokdomonligi ko'rsatiladi. Monografiyaning “Nasrnavislik mahorati” nomli ikkinchi bobida ham bolalarning, ham kattalarning ma'naviy olamini boyitishga birdek xizmat qilayotgan “Oq kaptarlar oroli”, “Halqa”, “O'g'il”, “Qochoq”, “Peshona”, “Binafsha”, “Baland tog'lar kabi” qissa va hikoyalarida ilgari surilgan g'oyaviy konsepsiya, obrazlar tasnifi, yozuvchining poetik mahorati nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi. Yozuvchi asarlarida ijtimoiy-ma'naviy muammolar inson taqdiri, qismati bilan bog'liq holda yoritilgani, ularda o'tish davriga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik murakkabliklar, ziddiyatli jarayonlar inson kechinmalari, ruhiy holatlar fonida yoritilgani badiiy tadqiq etiladi. Kitobning “Adibning essenavislik mahorati” nomli so'ngi bobida Abdusaid Ko'chimovning “Buni hayot deydilar...” esse-xotira janriga asoslangan kitobiga kirgan esselari tahlil etiladi. Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Shukrullo, O'tkir Hoshimov, Barot Bayqobilov, Ma'ruf Jalil, Pirmat Shermuhamedov, Mahmud Sa'diy, Shamsi Odil, Azim Suyun, Qozoqboy Yo'ldoshev kabi ijodkorlarning portretiga chizgilar berilib, ularning shaxsiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari, ijodiy faoliyati, ruhiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgani, shu asnoda muallifning ijtimoiy-ma'naviy va adabiy muammolarga munosabati ham ochilib berilgani taftish etiladi. Esselarda muallifning ustozlarga bo'lgan cheksiz mehri, xurmati va ehtiromi ham aks ettirilgani, umuman, kitobga kirgan har bir ijodkorga muallifning yuksak xurmati va ehtiromi namoyon bo'lishi, eng muhimi, ijodkorlar shaxsiyati, ijodiy olami mahorat bilan yoritilgani, kitobning ma'rifiy-estetik qimmatini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. A.Ko'chimov yaratgan esselarda yetuk iste'dod sohiblari, adabiyotimizning darg'alari hisoblangan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov, Pirmat Shermuhamedov kabi ijodkorlarning jonli va hayotiy siymolari, obrazlari o'ziga xos

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

shakl va ifodalarda, hayotiy lavhalarda, badiiylik bilan publitsistik ruhning uyg‘unligida yaratilgani, essechiligimizning muhim yutug‘i sifatida baholanadi.

Shogirdparvar ustoz ibratlari...

Qurdoosh Qahramonov ham ilmda ham hayotda ibratli umr yo‘lini bosib o‘tmoqda. Ustozning boshqa professorlarda kam uchraydigan o‘ta kamtarona hayot tarzi, pokdomon ziynati, talabaparvarligi va shogirdparvarligi yuksak insoniyligidan dalolat beradi. Dars jarayonida har bir fanga doir nazariy tushunchalar mohiyatini anglatish bilan birga chin insoniylikdan ham saboq beradi. Badiiy asar tahlili asosida ko‘ngil va tuyg‘ular noziklashuviga undaydi. Yodimda bundan 3-4 yilcha avval O‘zbek adabiyoti fani doirasida “Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy merosi” mavzusini ijodkorning uy muzeyida o‘tishni rejalashtirdik. Ustoz va talabalar hamrohligida Abdulla Qahhor uy muzeyiga tashrif buyurib, ijodkor hayoti, ijodiy laboratoriyasi, ijod olami yuzasidan yangi bilimlar, olam-olam taassurotlar olib, ular bilan qaytar ekanmiz, to‘satdan talabalar orasida bir qizning hamyoni yo‘qolgani ma’lum bo‘ldi. Bu noxush holat hammamizni dilimizni vayron qildi. Bu voqea ayniqsa, ustozga qattiq ta’sir qildi, bir muddat sukut saqladi, yuzlarida afsus-nadomat, achinish, hayrat allomatlarlari zuhr etib turardi. So‘ng pulini yo‘qotgani uchun yig‘lab turgan qizga taskin berib, o‘z hamyonidan yo‘qolgan miqdorda pul chiqarib berdilar. Universitetimiz Abdulla Qahhor uy muzeyiga yaqin bo‘lgani bois ustoz bilan piyoda ketdik. Yo‘lda ketar ekanmiz, pulni o‘g‘irlab olgan talabaning qilmishidan ko‘ra ko‘proq uning darz ketgan ma’naviyatiga achindi. Bu holatda o‘zini, biz ustozlarni ham aybladi. Shu voqeadan so‘ng ustoz ancha payt dilgir holatda yurdi...

Ustoz o‘zi ta’lim bergan shogirdlari orasida ilmga, adabiyotga qiziqishi bo‘lganlarni birinchi kursligidayoq aniqlab, muayayn mavzu asosida tizimli tadqiqot ishi olib borishga undaydi. Umrida birinchi marotaba maqola yozgan shogirdlarining ishlarini erinmay qayta-qayta tahrir qilib beradi, unga to‘g‘ri yo‘nalishni ko‘rsatadi. Ayrim manba va asarlarni o‘z uyidagi shaxsiy kutubxonasidan olib kelib o‘qishga undaydi. Bu kitoblarning ko‘pchiligi ustozning qo‘liga qaytib kelmasligini bilsada, talabalarni ilm-ma’rifatli qilishga, ilmiy ishga rag‘bat uyg‘otishga xarakat qiladi. Shunday marhamatlarga ko‘p bor muyassar bo‘lganim bois ba’zan ulardan dashnom ham eshitganman.

Ustozimga xos yana bir xususiyat u xoh talaba bo‘lsin, xoh katta mansabdor shaxs bo‘lsin, xoh yaqin kishisi bo‘lsin noo‘rin xarakat qilgan, adolatsizlikka yo‘l qo‘ygan kishiga haqiqatni aytib, tanbeh beradi. Laganbardorlik, tilyog‘lamachilik kabi illatlardan yiroq turadi. Bu kabi jihatlar ularning prinsipiialligi, adolatparvarligidan nishonadir.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ustozimning uylariga bir yumush bilan borib qolgudek bo‘lsam, albatta kelinoyimiz Nazira opaning lazzatli taomlar-ui pishiriqlari bilan siylanaman, hatto bolalaringizga deya uyimga ham ilinib berib yuboradilar. Ustoz va ayollaridagi bu g‘amho‘rlik, kamtarlik, odamiylik oilaning har bir a‘zosida, hatto kichik yoshdagi nevaralari-yu, kelinlarida ham zuhr topgan. Shu boisdan ularning xonadonlariga tashrif buyurgan har bir inson bunday samimiyatdan o‘zini oilasi davrasidagidek xis etadi. Balki shuning uchun bo‘lsa kerak, ota-onamning uzoq viloyatda ekani ham u qadar qattiq bilinmaydi. Shu bois ustozimni ma’naviy padarimdek ko‘raman...

Oллоhdan Ustozimga mustahkam sog‘lik, ikki olam saodatini so‘rayman. Jamiyatimizda ulardek shogirdparvar, jonkuyar ustozlarning borligi biz shogirdlar uchun sharafdir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
2. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
3. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
4. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
5. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
6. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.